# OLAM MANZARASI TASVIRIDA SOMATIZMLARNING ROLI

***Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna***
*f.f.d.(DSc), BuxDU dotsenti*

***Yodgorova Laylo Baxtiyorovna***
*BuxDU Lingvistika: ingliz tili yo`nalishi magistranti*

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada somatizmlar haqida va ularning olam manzarasi tasvirini ifoda etishdagi ahamiyati haqida so`z yuritiladi. Somatizmlar tilshunoslik, shuningdek turli fan sohalarida o`rganiladigan dolzarb muammo hisoblanadi.*

***Kalit so`zlar:*** *somatizm, somatik leksika, olam, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi*

***Аннотация:*** *В этой статье рассказывается о соматизмы и их значении в выражении картина мира. Соматизмы являются актуальной проблемой, изучаемой в языкознании, а также в различных областях науки.*

***Ключевые слова:*** *соматизмы, соматическая лексика, мир, картина мира, языковой картина мира.*

***Annotation:*** *This article deals with somatisms and their meaning in the expression of the picture of the world. Somatisms are studied as an actual problem in linguistics, as well as in various fields of science.*

***Key words:*** *somatism, somatic vocabulary, world, picture of the world, language picture of the world.*

Somatizm atamasi yunoncha “soma” so`zidan olingan bo`lib, bu so`z tana degan ma`noni anglatadi. Tana a`zolari o`zi ichiga bosh, ko`zlar, burun, quloq, qo`llar, oyoqlar va shu kabilarni oladi. Bu tana a`zolari hayvonlarda ham uchraydi. Somatizmlar inson yoki hayvon tana a`zolarni ifodalovchi so`zlar hisoblanadi. Ular biologiyada, tibbiyotda, falsafada, psixologiyada va shuningdek ilohiyotda ham olimlarning qiziqishiga sabab bo`lgan. Fanning har bir sohasi tomonidan somatizmlarga bo`lgan qiziqish ularning inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishi, inson bilish faoliyatining asosi, shuning obyektiv olam bilan munosabatga kirishi uchun xizmat qilishi bilan bog`liqdir. Somatik leksika barcha tillarda mavjud bo`lib, tillarning universal leksik qatlamiga kiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda o`rganilayotgan muammolar, olib borilayotgan izlanishlar barchasi antroposentrik nuqtai-nazaridan, eng muhim omil inson omili bilan bog`liqlikda tadqiq qilinadi. Bunda somatizmlarning – inson ta`na a`zolari katta ahamiyat kasb etadi. Insonni anglashda ta`na a`zolari muhim o`rin tutadi. Somatizmlar jamiki tillar lug`at tarkibida qadimdan mavjud bo`lib, keng qo`llanilish ko`lamiga ega so`zlar sirasiga kiradi. Somatizm bu inson va hayvon tana a`zolarini ifodalovchi til birligi –ya`ni so`zdir. Bu atama ilk bor eston tili tadqiqotchisi F.Vakk tomonidan qo`llanilgan, u shunday deydi : “Somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday so`z boyligining eng ko`p ishlatiladigan qismini tashkil etadi”.

Somatizmlar olam manzarasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli til so`zlovchilari turli madaniyat vakillari bo`lganliklari uchun olamni o`z ongida turlicha aks ettiradilar ya`ni olam manzarasi tasviri turli tillarda bir-biridan farq qiladi. Lisoniy birliklar orqali u so`zlovchilar nutqida o`z ifodasini topadi va bu olam lisoniy manzarasi sifatida tushuniladi.

Inson borliqni ko`zlari orqali ko`radi, quloqlari orqali undagi tovushlarni eshitadi, qo`llari bilan ushlab ko`radi va ongida tashqi olamdagi obyektlar haqida ma`lum bir xulosalar chiqaradi. Tana a`zolari inson hayotida muhim rol o`ynaydi. Insonning fikrlashi, faoliyati, obyektiv olam bilan munosabat o`rnatishi barchasi inson ta`na a`zolari bog`liq jarayonlardir. Tana a`zolari funksiyasida buzilishlar vujudga kelsa bu salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Atrofimizdagi dunyo bilan ko`plab tajribalarimiz tana a`zolarimiz idroki va hissiyotlar orqali shakllanadi va olam manzarasi shakllanadi. Bunda til yaratuvchisi o`zini bilishi natijasida inson tana a`zolarini nomlaydigan somatizmlar vujudga kelgan. Inson eng avvalo o`zini, o`zini qurshab turgan olamni o`z ta`na a`zolari orqali anglash, shuningdek olamdagi boshqa obyekt va predmetlarni o`zining tana a`zolari orqali his qilish bilan bir qatorda ularni borliqdagi jismlar bilan solishtiradi va ularni baholaydi. Baho insonning jismoniy va ruhiy tabiatidan kelib chiqadi va insonning fikrlashi, faoliyati, boshqa insonlarga va predmetlarga bo`lgan munosabatini, ularni qabul qila olish darajasini belgilaydi. Tabiiyki, bularning barchasi inson ta`na a`zolari bilan uzviy bog`langan. Tana a`zolari o`lchov manbai bo`lib xizmat qiladi.

V. Gakk esa shunday deydi: "Inson –egosentrikdir, u o`zida olam markazini ko`radi va olamni o`z qiyofasida aks ettiradi. Insonning o`zi olamning bir bo`lagi bo`lib, u til, so`zlar yordamida olamdagi jarayonlarni subyektiv baholab, o`z his-tuyg`ularini ifodalaydi, olamning lisoniy manzarasini ifodalalaydi, bunda somatizmlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Olimlar real dunyo va uni lingvistik vositalar somatizmlar orqali ularga o`xshatish bilan aks ettirish tasodifiy emasligini tan olishadi, chunki o'rganilayotgan so'zlar orqali uzatiladigan semantik ma'lumotlar atrofimizdagi real dunyodagi ma'lum obyektlarning ko'rinishidir. Inson til yordamida so`zlar orqali nafaqat real olam jarayonlarini subyektiv baholashni va his-tuyg'ularini aks ettiradi, shuningdek u o'zi bu dunyoning bir bo`lagi sifatida ko`radi.

Inson tanasidan obyektni kuzatish va o`rganish uchun foydalanish qulay bo`lib, tananing qismlari bildiruvchi so`zlar inson ongining o`zi kabi qadimiydir. Bu shuni anglatadiki, inson tana a`zolari vositasida tashqi muhitdagi obyektlarni kuzatish va o`rganish imkoniyatiga egadir, bu tana qismlarini ifodalovchi so`zlarning vujudga kelishi insoniyatda ongning shakllana boshlagan davriga to`g`ri keladi. Shuning uchun ham ular barcha tillar lug`at tarkibida qadim zamonlardan to hozirga qadar mavjuddir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Вакк.Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф.дисс…канд.филол. наукю-Таллин, 1964
2. Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatisms as part of phraseological units// International Journal on Integrated Education.Volume 3, Issue III, March, 2020. – P.73-78. (Impact Factor: SJIF 2020 – 5,712)
3. Gadoeva M.I. Lexico-semantic fields of "eye" in English and Uzbek languages //Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. https://saarj.com DOI NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India, 2021. – P.872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 - 7.492)
4. Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).

5. Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 – 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. –P.125-130. (JIF -7.223).
6. Gadoeva M.I. Lexico-semantic Classification of Somatisms in Phraseological Funds of English and Uzbek Languages // Eurasian Research Bulletin. Open Access, peer research journal. –Belgium, 2022. –V.4. –P.140-145. www.geniusjournals.org. (JIF – 7.995).
7. Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№12. –B. 411-416. (10.00.00; №26)
8. Gadoeva M.I. Expression of somatizms in curses // Euroasian journal of research, development and innovation. Genius journals publishing group. Belgium, 2021. – P.30-33.
9. Gadoeva M.I. The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs// European Conference on Natural Research. http://papers.onlineconferences. com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm. – Sweden, 2021. – P. 36-41.
10. Gadoeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology's. November 11th, https://academiascience.org/. –India. 2021, – P. 87-90.
11. Gadoeva M.I. Background analysis of somatic phraseological units in Uzbek//Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, Hosted From New York. www.econferenceglobe.com. –USA. 2021. –P. 297- 300.
12. Gadoeva M.I. Interpretation of "head-bosh", "foot-oyoq" and "heart-yurak (qalb)" in English and Uzbek languages // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November) ISSUE 5. – Copenhagen. 2021. – P.61-65.
13. Gadoyeva M.I. Ingliz va o`zbek tillarida somatik frazeologik birliklar pragmatikasi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№3. –B. 286-292. (10.00.00; №26)
14. Гадоева М.И. Алишер Навоий ғазалларининг инглизча ва русча таржимасида соматизмларнинг ифодаланиши // Ilm sarchashmalari. Urganch davlat universitetining ilmiy nazariy, metodik jurnali. – Urganch, 2021. -№5. –B. 80-85. (10.00.00; №3)
15. Gadoyeva M.I. Somatizmli frazeologik birliklarning konseptual tahlili // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. ISSN:2181-0427. –Namangan, 2020. -№12. – B.258-267. (10.00.00; №26)
16. Gadoyeva M.I. Somatik lug`at nominatsiya ob`yektining xususiyatlari // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. ISSN:2181-0427. –Namangan, 2022. -№3. – B.299-304. (10.00.00; №26)
17. Gadoyeva M.I. Somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific Progress. Scientific journal. October, VOLUME 2, ISSUE 6, ISSN: 2181-1601, www.scientificprogress.uz. –Uzbekistan. 2021. – P. 1749-1754.
18. Gadoyeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology's. November 11th, https://academiascience.org/. –India. 2021, – P. 87-90.
19. Gadoyeva M.I. "OYOQ" leksemali somatik frazeologik birliklar tavsifi // Прагмалингвистика, функционал таржимашунослик ва тил ўргатиш жараёнлари интеграцияси. Халқаро илмий-назарий анжуман. – Бухоро, 2021. – Б.41-45.
20. Ўраева Д.С., Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек мақолларида соматизмнинг ифодаланиши // Инновационное развитие науки и образования. Международная конференция. Сборник научных трудов. Павлодар. – Казахстан. Август. 2021. – С.21-25.

21. Гадоева М.И., Ўраева Д.С. Халқ маросимлари ва уларга алоқадор жанрларда соматизмларнинг поэтик ифодаси // Прагмалингвистика, функционал таржимашунослик ва тил ўргатиш жараёнлари интеграцияси. Халқаро илмий-назарий анжуман. –Бухоро,2021. – Б.80-84.
22. Gadoyeva M.I., Karimova F. The pragmatic analyses of the somatism “head” in “Jane Eyre” and “Anna Karenina // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. ISSN:2181-0427. –Namangan, 2022. -№2. – B.356-360. (10.00.00; №26)
23. Gadoyeva M.I., Subxanova M. Ingliz va o`zbek maqollarining lingvokulturologik tahlilida til va madaniyatning o`rni // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. ISSN:2181-0427. –Namangan, 2022. -№2. – B.250-255. (10.00.00; №26)
24. Gadoyeva M.I. Ingliz va o’zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning o’ziga xos xususiyatlari // Modern problems and prospects of learning foreign languages in educational system. International scientific-practical conference. –Bukhara, March 5-6, 2020, – P.39-43.
25. Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек топишмоқларида “кўз” соматизмининг кўп маънолилиги // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами VII. –Тошкент, 2016. – Б. 21-23.
26. Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек мақолларида соматизмларнинг маънолари // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами VIII. –Тошкент, 2017. – Б. 12-15.
27. Гадоева М.И. Қарғишларда инсон тана аъзолари қисмлари ифодаси. Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами IX. –Бухоро, 2018. – Б. 10-12.
28. Gadoyeva M.I. Maqollarni tarjima qilish muammolari // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами IX. –Бухоро, 2018. –Б. 191-193.
29. Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида “бош” сўзининг полисемантиклиги // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами X. –Бухоро, 2019. –Б. 36-37.
30. Gadoyeva M.I. Conceptual analysis of phraseological units with the somatism component in the system of non-related languages // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Qiyosiy adabiyotshunoslik: O‘tmishi, buguni, istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman. – Toshkent, 2020. – B. 223-227.
31. Гадоева М.И. Ҳикматли мақоллар таржимаси // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами XI. –Бухоро, 2020. –Б. 6-11.
32. Гадоева М.И. Ватанпарварлик руҳидаги мақоллар таржимаси // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами XI. –Бухоро, 2020. –Б. 11-13.
33. Gadoyeva M.I. Analyses of somatic idioms in the structure of phraseological units // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами XII. –Бухоро, 2021. – Б.9-11.
34. Gadoyeva M.I., Karimova F.I. Ingliz va o’zbek tillarida inson tana a’zolari ishtirok etgan frazeologizmlarning pragmatik tahlili // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами XII. – Бухоро, 2021. – Б. 11-15.

35. Gadoyeva M.I., Narzullaeva F.O., Tuymurodova R. Analysis of body part idioms in the system of non-related languages // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами XII. – Бухоро, 2021. – Б. 18-25.
36. Gadoyeva M.I., Subxanova M. O'zbek va ingliz tillarida maqollarning mavzu jihatdan bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari // Тилнинг лексик семантик тизими ва қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами XII. –Бухоро, 2021. – Б. 187-192.
37. Gadoyeva M.I. Alisher Navoiy g'azallaridagi inson bosh qism somatizmlarining inglizcha va ruscha tarjimada berilishi // Alisher Navoiy asarlarining yangicha tafakkur hakllanishidagi o'rni va ahamiyati. Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan viloyat ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Navoiy, 2021. – B. 58-63.
38. Gadoyeva M.I. Semantic compatibility and interlinguistic alternatives in somatic phraseological units in English and Uzbek // Ta`lim va tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar, muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –Toshkent, 2021. – B. 8-12.
39. Gadoyeva M.I. Alisher Navoiy g`azallarida qo`llanilgan "bag`ir" somatizmining inglizcha va ruscha tarjimada berilishi // Башарият маънавий юксалиши ва ёшлар тарбиясида Алишер Навоий меросининг аҳамияти. Республика онлайн илмий-амалий конференцияси. – Бухоро, 2021. – Б. 288-292.